

**Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA’LUMOT**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoni(99 353 93 54)ga 23-31 mart kunlari **352 ta** fuqarolar murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligidan kelgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga hafta davomida imtiyozga ega fuqarolardan **e’tirozli 7(2,2%)ta og‘zaki murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy rehabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemor** shifokorlar qarovidan, davolash va oziq ovqatlar sifatidan;

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **4 nafar bemorlar** shifokorlar qarovidan, davolash sifatidan va o‘z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi yuzasidan;

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy - amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemor** shifokorlar qarovidan, davolash sifatidan **noroziligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaat** qildilar.

Ushbu murojaatlar yuzasidan shifoxona mas’ullariga hamda hududiy bosh mutaxassisga telefon orqali ma’lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas’ullariga bemorlar e’tirozi o‘rinliligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi.**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi manziliga Jizzax viloyati Yangiobod tumani yashovchi fuqarodan farzandini **chet elda jarrohlik amaliyoti o‘tkazish uchun moliyaviy yordam so‘rab** yozgan murojaati kelib tushdi. Fuqaro murojaati mutaxassislar tomonidan o‘rganish jarayonida.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati.**